O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
_____________ O.SH.Bazarov
“27” iyun 2024-yil

Ro‘yxatga olindi № 05/04/014
“27” iyun 2024-yil

# “SANOAT IQTISODIYOTI”

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200000 – Ijtimoiy soha va huquq |
| Ta’lim sohasi: | 230000 – Iqtisodiyot |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan |

Qarshi – 2024

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| ACCOU6 | 2024-2025 | 7 | 6 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Tanlov fani | O'zbek | | 5 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Sanoat iqtisodiyoti | 76 | 104 | 180 |

**2.**

### I. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat sanoat iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari to'g'risida talab qilinadigan bilimlarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** - sanoat ishlab chiqarishini boshqarish, va uni izchil, barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish; talabalarga davlatning iqtisodiy siyosatini jumladan sanoat siyosatini chuqur anglatish chuqur anglatish; sanoat iqtisodiyotini boshqa iqtisodiy fanlar yutuqlari bilan o'zaro hamkorlikda o'rgatish; iqtisodiy qonunlar, sanoat soxasida fundamental qoidalar va xodisalargning sanoat soxasida amal qilish xususiyatlarini o'rgatish va boshqalar kiradi.

### II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)
### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Fanning predmeti va vazifalari**

Fanning vazifalari. Sanoat iqtisodiyoti - fan va o'quv kursi sifatida. Ushbu fanning obyekti. Sanoatning ta'rifi va tavsifi. "Sanoat iqtisodiyoti" kursining predmeti. "Sanoat iqtisodiyoti" fanining o'rganish uslubiyati va usullari. Kursning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni hamda boshqa o'quv fanlari bilan bog'liqligi. "Sanoat iqtisodiyoti" kursining bozor iqtisodiyoti sharoitiga va islohotlar talabiga xos vazifalari. O'zbekistonda sanoatni va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar, farmonlar va nizomlar.

**2-mavzu. Sanoat - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i**

Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o'rni. Sanoat-moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i. Mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqaruvchi soha. Sanoat va aholining ish bilan bandligi masalasi. Sanoatning tarixiy rivojlanish yo'llari va asosiy yakunlari. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi. Sanoatda iqtisodiy o'sish. Sanoat tarmoqlarining o'sishi tendensiyasi-elektr energiyasini ishlab chiqarish, neft va gaz qazib olish, po'lat va prokat rangli metallar va kimyoviy mahsulotlar, ishlab chiqarishi mashinasozlik va metallga ishlov berish sohasining mahsulotlari qurilish materiallari yengil va oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi. XXI asrning birinchi 15 yiligiga mo'ljallangan vazifalar. Jahon sanoat ishlab chiqarishida O'zbekiston sanoatining tutgan o'rni va strategik hamkorlikni kuchaytirish muammolari.

**3-mavzu. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar**

Struktura siyosati, uning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog'ining shakllanishi. Sanoat tarmog'i tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Sanoatning tarmoqlarga bo'linishi va tarmoq tuzilishi. Sanoat tarmoq tuzilishining ko'rsatkichlari. Sanoat tarmoq tuzilmasining progressivlik mezoni.

Sanoat tarmoq tuzilishini belgilovchi omillar. Tarmoq tuzilmasi o'zgarishining asosiy tendensiyasi. Sanoatning zamonaviy tarmoq tuzilmasi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish borasidagi yaqin va uzoq istiqboldagi ustuvor vazifalar. Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida yoritilgan Iqtisodiy dasturning "Ustuvor yo'nalishi - boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish" bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar.

**4-mavzu. Sanoatda zamonaviy boshqaruv tizimi**

Boshqaruv obyektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida. Sanoatni va umumiy iqtisodni ilmiy asosda boshqarishni uyushtirish. Sanoatni ilmiy boshqarishning muhim muammolari. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari. Bozor talablariga moslashtirilgan prognozlarni ishlab chiqish. Sanoatda barqarorlik tamoyili. Ishlab chiqarish va mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Boshqarishning ilmiylilik, tejamkorlik, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Sanoat boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi. Boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy asosiy yo'nalishlari.

**5-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish**

Prognozlash: mohiyati, ahamiyati, mazmuni. 2014-2016 yillarga mo'ljallangan bashoratlar va ularga erishishning asosiy yo'llari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning mohiyati va ahamiyati, vazifalari va tamoyillari. Tarmoq va korxona darajasida sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishning xususiyatlari va uslubiy asoslari. Sanoat tarmoqlarining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirishda shartnoma munosabatlarining ahamiyati va o'rni. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi. Reja - birinchi hujjat va rejalashtirishning natijasi sifatida. Rejalarning turlari: indekativ, strategik, biznes-reja. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

**6-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi**

Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining "ko'zgusi" sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezoni va ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi (umumlashtiruvchi va resurslar turi bo'yicha differensiallashtirilgan) va ularni hisoblash usuli. Qiyosiy (nisbiy) iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va ko'rsatkichlari. Keltirilgan xarajatlar va ularni hisoblash usuli. Yillik iqtisodiy samara va uni hisoblash usuli. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo'llari. Texnik va texnologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tashkiliy va xorijiy omillar. Sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

**7-mavzu. Sanoatda fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat**

Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati. Fan-texnika rivoji va sanoatni tuzilishi jihatdan qayta qurish. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalashtirish. Elektrlashtirishning moddiy asosi bo'lgan yoqilg'i-energetika majmuasini rivojlantirish istiqbollari. Sanoat ishlab chiqarishini har tomonlama avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish. Uning mohiyati, ahamiyati va asosiy yo'nalishlari. Texnologiya, ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalar tushunchasi va ularni joriy etishning asosiy yo'nalishlari. Bio va nanotexnologiyalar va chet el tajribasi. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash.

**8-mavzu. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish**

Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda kichik va xususiy korxonalarning ustuvorligi. Maxalliylashtirish uning moxiyati va axmiyati mazmuni . maxalliylilatiradigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish – inqirozga qarshi choralar dasturining eng ko'plab masalalaridan biri ekanligi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari. Kooperativlashtirish tushunchasi, uning shakllari va darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Sanoat korxona (firma)lari o'rtasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarining turlari va ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Diversifikatsiyalash. Uning mohiyati, axamiyati va mazmuni. Iqtisodiyotni, jumladan, sanoatni diversifikatsiya qilishning eng muxim ustuvor yo'nalishi. Kombinatlashtirish: mohiyati, ahamiyati, shakllari va ko'rsatkichlari. Kombinatlashtirishning hozirgi ahvoli va istiqboli.

**9-mavzu. Sanoatda kadrlar va mehnatga haq to'lash**

Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi. Xodimlarni guruhlarga ajratish va kadrlarning zamonaviy tuzilmasini tashkil etish. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish. Kadrlardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari. Sanoat ishlab chiqarishi uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash. O'zbekiston sanoatida kadrlar salohiyatini kuchaytirishda chet el tajribasini keng qo'llash. Mehnat va unga haq to'lash. Xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Tarif tizimi, uning mohiyati, ish haqini tashkil etish va tartibga solishning ahamiyati. Sanoat xodimlarini ijtimoiy himoya qilish muammolari.

**10-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari**

Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston sanoati asosiy fonlarining dinamikasi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibi va tuzilmasi. Umumiy, texnologik tarmoq, hududiy tuzilmalar va ularning tarmoqlararo nisbatlari. Asosiy fondlarning strukturasiga ta'sir etuvchi omillar. Asosiy fondlarni baholash usullari. Asosoiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi. Jismoniy va ma'naviy eskirish. Amortizatsiya siyosati va uni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Amortizatsiya ajratmalari: mohiyati, ahamiyati, ulardan foydalanishning normalari va yo'nalishlari. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari. Fond sig'imi va qaytimi. Ularning iqtisodiy samaradorligi. Ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari. Unga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish quvvatining tuzilmasi va dinamikasi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni o'lchash.

**11-mavzu. O'zbekiston sanoatining xomashyo manbai va uni joylashtirish**

Sanoatda xomashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi. Xomashyo va yoqilg'i-energetika resurslari tushunchasi va ularni guruhlarga ajratish. Sanoat xomashyo bazasini kengaytirish uchun geologiya-qidiruv ishlari va tabiiy boyliklarni o'rganishning ahamiyati. Foydali qazilmalar zaxiralarini turkumlarga ajratish. Mineral xomashyo va yoqilg'ilarni iqtisodiy baholash. O'zbekistonda mineral xomashyo, yoqilg'ilarni qazib olib va elektr energiyasi ishlab chiqarish dinamikasi. Sun'iy va sintetik materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish. Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi. Sanoatda xomashyo, yoqilg'i va energiyani tejashning asosiy yo'nalishlari. Mineral xomashyo va ulardan oqilona foydalanish.

**12-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag'lari**

Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati. Sanoat tarmoqlarida aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi. Aylanma fondlari elementlaridan foydalanish ko'rsatkichlari va mahsulotning material sig'imi. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari. Sanoatda material resurslarni tejashning asosiy yo'nalishlari va rezervlari. Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish. Aylanma mablag'lar va ularning mohiyati va ahamiyati. Aylanma va muomala fondlari. Ularning tarkibi va aylanish ko'rsatkichlari. Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari. Eksportni rag'batlantirish uchun aylanma mablag'larni to'ldirish - inqirozni oldini olishning asosiy sharti.

**13-mavzu. Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi**

Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol xossasi va uning texnikaviy darajasi. Mahsulot (xizmatlar) sifatining tavsifi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlarini guruhlarga ajratish va nomenklaturasi. Mahsulot sifati darajasini baholash usullari. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari. Mahsulot (xizmatlar) sifatini jahon talabiga ko'tarish yo'llari. Mahsulot sifatini oshirishning texnologik, iqtisodiy, tashkiliy yo'nalishlari. Mahsulot sifatini yaxshilashni iqtisodiy rag'batlantirish. Standartlar va standartlashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Xalqaro ISO 9001 standartlari. Sertifikatlar va sertifikatsiyalashning mohiyati va ahamiyati. Attestatsiya va nazorat etish masalalari.

**14-mavzu. Sanotda tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi**

Qiymat va tannarx nazariyasi va ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari. Tannarx tushunchasi va turlari. Sanoat ishlab chiqarishi sifat ko'rsatkichlari tizimida tannarxning roli va tutgan o'rni. Tannarx elementlari va xarajatlarini turkumlash, tannarx strukturasi va uni belgilovchi omillar. Foyda va uni maksimallashtirish. Foyda (daromad) tushunchasi. Foydaning tashkil topishi va taqsimlanishi. Rentabellik va uni oshirish yo'llari. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va uni baholash usullari. Mahsulot tannarxini pasaytirish manbalari va omillari. Ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish - inqirozga qarshi kurashning asosiy omili.

**15-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash**

Davlatning baho siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati. Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyati. Bahoning funksiyalari, turlari va strukturasi. Uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Baholashni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari. Tovar sotishni ko'paytirish. Maksimal foyda olish. Korxonalarning muayyan mavqeini saqlab qolish.

**16-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish**

Sanoatni joylashtirish tamoyillari. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning mohiyati va ahamiyati. Sanoatni joylashtirish omillari. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Ayrim korxonalarni joylashtirishning iqtisodiy asoslash usuli. Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish - ijtimoiy ishlab chiqarishning tashkil etishni muhim shakli sifatida. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish tamoyillari. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish omillari. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlar. Erkin industrial-iqtisodiy zona. Uning mohiyati ahamiyati, mazmuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda qabul qilingan "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni va uni amalga oshirish yo'llari.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanning predmeti va vazifalari
2. Sanoat - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i
3. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar
4. Sanoatda zamonaviy boshqaruv tizimi
5. Sanoat ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish
6. Sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi
7. Sanoatda fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat
8. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish
9. Sanoatda kadrlar va mehnatga haq to'lash
10. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari
11. O'zbekiston sanoatining xomashyo manbai va uni joylashtirish
12. Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag'lari
13. Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi
14. Sanotda tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi
15. Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash
16. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

| | |
|---|---|
| 1. | O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida 2023 yil uchun belgilangan ustuvor tamoyillarning ahamiyati |
| 2 | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi va uning natijasida amalga oshiriladigan ishlarning tashqi iqtisodiy siyosatga ta'sirini o'rganish |
| 3 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat ishlab chiqarishining milliy iqtisodiyot va jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni. |
| 4 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat sohasidagi tarkibiy siljishlar va ularning samaradorligi. |
| 5 | Sanoat ishlab chiqarishini ilmiy jihatdan boshqarishning asosiy muammolari. |
| 6 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bashorat qilish va rejalashtirsh falsafasi. |
| 7 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat ishlab chiqarishining texnik va texnologik bazasini yaratishning o'zbek modeli. |
| 8 | Tushuncha, logistika tizimlari. |
| 9 | Sanoatni barqaror rivojlanishini ta'minlashda kadrlarning roli. |
| 10 | Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida asosiy va aylanma fondlarni takror ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning samaradorligini oshirish. |
| 11 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoatning xomashyo bazasi va undan oqilona foydalanishning asosiy yo'nalishlari. |
| 12 | Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida mehnat unumdorligi va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar. |
| 13 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoatda tejamkorlik tizimini yaratish masalalari. |

| | |
|---|---|
| 14 | Sanoat - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i. |
| 15 | Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar |
| 16 | Sanoatda zamonaviy boshqaruv tizimi |
| 17 | Sanoat ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish |
| 18 | Sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi |
| 19 | Sanoatda fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat |
| 20 | Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish |
| 21 | Sanoat ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari |
| 22 | O‘zbekiston sanoatining xomashyo manbai va uni joylashtirish |
| 23 | Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag‘lari |
| 24 | Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi |
| 25 | Sanotda tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi |

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan taqdimotlar tayyorlash va uni himoya qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3.**

**V. FAN O‘QITILISHINING NATIJALARI (shakllanadigan kompetensiyalar)**

***Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:***

“Sanoat iqtisodiyoti” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

➢ Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: mamlakat sanoat iqtisodiyotining rivojlanish holati, mamlakatda o‘zaro iqtisodiy aloqalarning o‘rnatilishi, mahsulotlar eksportining holati, mehnat resurslaridan samarali foydalanish usul va yo‘llarini ***biladi va ulardan foydalana oladi***

➢ Sanoat iqtisodiyoti va uning rivojlanishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli va strategik muhim loyihalarni amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi; sanoat iqtisodiyotining hamda sanoat rivojlanishining ijobiy hamda salbiy oqibatlari, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash; transformatsiya samaradorligini baholash; kuzatishlar natijasida olingan ma’lumotlarni tizimlash va qayta ishlash; ma’lumotlarni qayta ishlash natijalarini umumlashtirish va tashkil qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.***

**4.**

**VI. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**

- ma’ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish.

**5.**

**VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.

**6.**

**ASOSIY ADABIYOTLAR**


1. Волков О.И., Девяткин О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие.-М.: ИНФРА – М.2008. – 601 стр.
2. Горфинкел В.Я., проф. Швандар В.А. Экономика предприятия. Учебное пособие.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008,–718 стр.
3. Кантор Е.Л, и др. Экономика предприятий. Учебное пособие. – СП.: Питер, 2009.–224 стр.
4. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.–T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004, - 215 b.
5. Ortiqov A., Karabayeva. “Sanoat iqtisodiyoti” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.– T.: TDIU, 2012 – 180 bet.


**QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR**


1. O’zbekiston Respublikasining “Raqobat” to’g’risidagi Qonuni. – T., 1998 yil.
2. Mahmudov E. “Korxona iqtisodiyoti”. O’quv qo’llanma. –T . O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. - 170 bet.
3. Просветов Г.И. Экономика предприятия: задачи и решения. Учеб. практическое пособ. Учебное пособие. – М.: «Альфа-Пресс», 2009. – 560 стр.
4. Ortiqov A., Karabayeva. «Sanoat iqtisodiyoti» fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.– T.: TDIU, 2012 – 180 bet.
5. Egamberdiev E., Qudratov F. “Korxona iqtisodiyoti” (O’quv qo’llanma). Toshkent moliya instituti 2004 yil
6. Mahmudov E. “Korxona iqtisodiyoti” (o’quv qo’llanma) TDIU, 2004 yil
7. “Mulkchilik to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. O’zbekiston respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T., 1992 yil.
8. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.
9. “Tadbirkorlik to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.
10. O’zbekiston Respublikasining YEr kodeksi. – T., 1998 yil.
11. “Fermer xo’jaligi to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
12. “Dehqon xo’jaligi to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
13. “Qishloq xo’jaligi kooperativi (shirkat xujaligi) to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
14.“Ijara to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
15.“Qishloq xo’jaligi korxonalarini sanasiya qilish to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
16. “Aholini ish bilan ta'minlash to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
17. “2005-2007 yillarda fermer xo’jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo’yicha maxsus komissiya tuzish to’g’risida”gi O’zbekiston Resnublikasi Prezidentining 2004 yil 4 noyabrdagi Farmoni. //Xalq so’zi, 2004 yil 5 noyabrь.
18. “2004-2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish kontsentsiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Resnublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi Farmoni, // Xalq so’zi, 2003 yil 28 oktyabrь.
19.”2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 476-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi qarori.
20. “Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 486-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi qarori.
21.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004 yil 16 apreldagi 1337-sonli «Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklariga bo‘lg‘usi hosilni garovga olgan holda kreditlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori.
22.O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2004 yil 6 yanvar 1295-son bilan ro‘yxatga olingan «Fermer xujaliklarining davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g‘alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to‘g‘risida Nizom».
23.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi».
24.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnoma».
25.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xizmat ko‘rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma».
26.Karimov I.A., “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo’llari va choralari”, –T.: “O`zbekiston”, 2009.
27.I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo’llari va choralari” nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. Tuzuvchilar: B.Ю.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G’ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009-120 b.
28. Mirziyoyev SH.M.“Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. “Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil 16 yanvar № 11 (6705)
29. Mirziyoyev SH.M. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo’lib o’tgan majlisida ma’ruzasidan **“2017–2021 yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi”** “Xalq so’zi” gazetasi, 08.02.2017
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017 y.//Xalq so’zi gazetasi, 2017 yil 23 yanvar.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2017 yil 6 dekabr

| | |
|---|---|
| | 32.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", 2017. -488 b.<br>33.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: "O'zbekiston", 2017. -48 b.<br>34.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2018. 131-b.<br>35. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T:, 22.12.2017.<br>36. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar<br>**AXBOROT MANBALARI**<br>37. http// www.gov.uz<br>38. http// www.lex.uz<br>39. http//www.stat.uz<br>40. http//www.agrar.uz |
| 7 | **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8 | **Fan / Modul uchun mas'ul**<br>**Sh.A.Yuldosheva** – "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti<br>**N.A.Ochilova** – "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**S.N.Xamrayeva** -QarMII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.<br>**X.S.Muxitdinov** –QarMII, "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori. |